MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING O‘RNI


Qosimova Yulduz Dusbekovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish strategiyalari, Respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyalari, Xitoy davlati o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlari: Eksport-import, investitsiya, strategiya, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy aloqalar.

Mamlakatimiz hozirgi tashqi siyosiy faoliyatining xalqaro maydonda aloqalarni kengaytirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy qadamlar o‘z ifodasini ko‘rsatmoqda. Ushbu munosabat bilan Singapur, Fransiya, Hindiston, Xitoy, Afg‘oniston, Yaponiya, Germaniya, Qozog‘iston, Turkmaniston kabi dunyo mamlakatlari bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir bir qator tegishli dasturiy hujjatlar ishlab chiqildi va «yo‘l xaritalari» tasdiqlandi. Yuqori darajalardagi xalqaro tashriflar davomida mamlakatimiznning milliy manfaatlariga javob bera oladigan shu bilan birga, yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan chuqur o‘ylangan faol, ochiq, va pragmatik tashqi siyosiy yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.Bundan shuni anglashimiz mumkinki, yangi ustuvor yo‘nalishlar va yondashuvlar tashqi siyosiy boshqarma tuzilishining chuqur isloh qilinishini talab eta oldi. Tashqi ishlar vazirligida yangi bo‘linmalar tashkil etildi, Belarus va O‘monda vakolatxonalar, Rossiya va Qozog‘istondagi shaharlarda bir nechta bosh konsulliklar ochildi va negizida diplomatik iqtisodiy faoliyat tarkibi kuchaytirildi.Yirik davlatlararo maydondagi hamkorlik xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ilg‘or dunyo tajribasini o‘rganish orqali O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni hal qilishga yordam berishi kerak, bu mamlakatda maksimal qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Ushbu doirada Respublika tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy mamlakatlar bilan ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi qirralarni ocha oldi.

Natijada 2019-yilda mamlakatimizga bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi o‘sdi. Ularning hajmi 4,2 mlrd. dollarni tashkil etdi, bu 2018-yildagiga nisbatan 3,7 baravar ko‘proqdir.(1-jadval)



Xorijiy mamlakatlar bilan eksport import aloqalari (1-jadval)

Birgina Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan.Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, do‘stona va o‘zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan o‘zaro ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo‘yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqingligi muhim o‘rin egallaydi. 2011-yil 19-20-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Xitoyga uyushtirilgan tashrifi chog‘ida tomonlar o‘rtasida davlatlararo va idoralararo hamkorlikka doir qator hujjatlar imzolangan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi” Bitim ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rivojlanishi uchun mustahkam asos bo‘ldi. Shuningdek, tomonlar o‘rtasida hukumatlararo O‘zbekiston-Xitoy hamkorlik qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi va uning I yig‘ilishi 2011-yilning 26-27-oktabr kunlari Pekin shahrida, II yig‘ilishi 2013-yil 30-oktabrda Toshkent shahrida o‘tkazildi. Qo‘mita doirasida hamkorlikning turlisohalari bo‘yicha 7 ta kichik qo‘mitalar tashkiletildi.O‘zbek-xitoy mamlakatlari munosabatlari rivojining muhim bosqichi bo‘lib 2012-yil 5-7-iyun kunlari Xitoyga amalga oshirilgan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning rasmiy tashrifi xizmat qildi va tomonlar umumiy

qiymati 5,3 milliard AQSh dollariga teng 45 bitim va shartnomalarni imzolashdi O‘zbekiston va Xitoy strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma Deklaratsiyani kelishib olindi.

O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan davlarlararo munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari keng savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni kengaytirishni o‘zaro manfaatdorlik va sifatida ko‘radi.

2013-yilning mart oyida ushbu park “Jizzax” maxsus industrial zonasi sifatida tashkil etildi va u Sirdaryo viloyatida o‘z filialiga ega bo‘ladi.Bir qator Xitoy kompaniyalari respublikamiz hududida uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston «O‘zbekiston-Xitoy» gaz quvuri va «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temiryo‘li qurilishini qo‘llab-quvvatlaydi.Respublikamizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 540 ta korxona ish yuritmoqda. Ularning 80 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Mamlakatimizda Xitoyning 73 kompaniyasi va kolatxonalari ishlab turibdi.Rossiya-O‘zbekiston o‘rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, ko‘p qirrali, shu jumladan, moliyaviy sohada amalga oshirilayotgan ishlar moliya, soliq va bojxona organlarini modernizatsiya qilish, byudjetni rejalashtirish, mahalliy byudjetlar mutanosibligiga erishish, moliyaviy nazorat bo‘yicha samarali mexanizmlarni takomillashtirish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ilg‘or tajriba, texnologiyalar va bilimlarni jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratish, qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish, Rossiyaning etakchi ta’lim muassasalari negizida soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan chegaralardan o‘tishda “yashil yo‘lak” tashkil etilgani natijasida O‘zbekiston meva-sabzavotlarini Rossiyaga etkazib berish qariyb 36 foizga oshgani, Rossiyaning etakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarining yanada yaxshilanayotganidan dalolat beradi. - Birgina “Lukoyl” kompaniyasi O‘zbekistonga 7 milliard dollar investitsiya kiritgani, Qandim gazini qayta ishlash majmuasi ishga tushirilgani, “Rosatom” Atom energiyasi bo‘yicha davlat korporatsiyasi bilan energetika sohasida sheriklik va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ham alohida o‘rin tutadi. Hozirda Rossiya - O‘zbekiston o‘rtasida erkin savdo tartibi amal qilmoqda. Buning natijasida ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga o‘sgan. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan muzokaralarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, transport va energetika sohalarida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilingan. Mavzu doirasidagi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik masalalarining yangi bosqichga o‘tganligi o‘rganilganda davlat rahbarlari

tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo‘lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolangan. SHuningdek, ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturining qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Саидакбаров Х.Х., Саидова Д. Н. Направления развития сельского хозяйства в Республике Узбекистан 2014.2-190С

2.Asanov G.R Nabixonov M. Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy ijtimoiy jog‘rofiyasi T:O‘qituvchi 1994.

3.Boden J Metodolegkogo poznaniya istorii. M.:Nauka 2020 212 b

4.Tursunov E. Vneshneekonomicheskiy svyazai Uzbekistan vipolnil. T. 2021